

**“Mikrokreditbank” ATBda jismoniy shaxslar uchun “FIFA–2026” omonati aksiyasini o‘tkazish dasturi**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu dastur, aholini “Mikrokreditbank” ATB tizimida (keyingi o‘rinlarda - Bank) joriy qilingan omonatlariga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish va ularning qo‘lidagi bo‘sh pul mablag‘larini bank omonati hisobvaraqlariga jalb qilish orqali bankning depozit portfeli salmog‘ini oshirish hamda chakana xizmatlar bozorida bank ulushini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.
2. Mazkur dastur, Bank tizimida jismoniy shaxslarning amaldagi muddatli omonatlar hisobvaraqlariga “FIFA–2026” nomi aksiya (keyingi o‘rinlarda – aksiya) o‘tkazish shartlarini, aksiya ishtirokchilari doirasini va aksiya g‘oliblarini taqdirlash, shuningdek aksiya sovrinlarini olish tartibini belgilaydi.
3. “FIFA-2026” nomli omonat aksiyasi bankning ichki marketing va mijozlarni rag‘batlantirish dasturi hisoblanadi. Mazkur nom aksiyani identifikatsiya qilish maqsadida qo‘llanilgan bo‘lib, Bankning FIFA tashkiloti bilan rasmiy hamkorligi, homiyligi yoki affiliatsiyasini anglatmaydi.
4. Ushbu aksiya lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin hisoblanmaydi hamda mijozlarning mulk risklariga bog‘liq bo‘lmagan holda amalga oshiriladi. Aksiya bank tomonidan shakllantirilgan mukofot jamg‘armasi hisobidan o‘tkaziladi.
5. Aksiya tashkilotchisi – “Mikrokreditbank” ATB.
6. Yuridik manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Lutfiy ko‘chasi 14-uy.
7. Aloqa markazining telefon raqami: 1285, +998 55 503-63-63

**II. Aksiya o‘tkaziladigan shartlari**

8. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
9. Aksiyaning o‘tkazish davri – 2023-yil may oyidan 2026 may oyigacha (keyingi o‘rinlarda – aksiya o‘tkazish davri).
10. Bankda aksiya o‘tkazish to‘g‘risida ma‘lumotlar Bankning rasmiy veb-sayti, Instagram, Facebook va ijtimoiy tarmoqlarda joylashtiriladi.
11. O‘tkazilgan aksiya natijalari bo‘yicha g‘oliblar 2026-yil **5-may kuni** <https://random.org> saytidan foydalanilgan tasodifiy tanlov asosida aniqlanadi.
12. Bank tomonidan aksiya g‘oliblarining ism-shariflari, fotosuratlar va boshqa ularga tegishli ma‘lumotlardan reklama maqsadlarida ularning roziligi asosida foydalanishga yo‘l qo‘yiladi.

**III. Aksiya ishtirokchilari doirasi**

13. Jismoniy shaxs maqomidagi barcha toifadagi muloqotga layoqatli yoshi chegaralanmagan shaxslar (omonat hisobvaraqlari) aksiyada quyidagi shartlar asosida ishtirok etadi:
  - Bank tizimida amaldagi “FIFA-2026” milliy va xorijiy valyutadagi muddatli omonat turlariga jismoniy shaxslar tomonidan bank tarmoqlari orqali yoki mobil ilova orqali aksiya o‘tkazish davri oralig‘ida mablag‘ joylashtirilgan bo‘lishi;

- Aksiya davrida mavjud omonatlar umumlashtirilgan holda hisobga olinadi;
- Aksiyada omonatchilarning barcha omonat hisobvaraqlari umumlashtirilgan holda (yagona unikal kod) shaklida ishtirok etadi.

#### **IV. Aksiyada ishtirok etmaydigan hisobvaraqlar**

14. Aksiyada quyidagi hisobvaraqlar ishtirok etmaydi:

- “FIFA-2026” milliy va xorijiy valyutadagi muddatli omonatidan tashqari ochilgan omonatlar;
- Saqlash muddati tugamagan omonatlarni qayta rasmiylashtirish orqali ochilgan hisobvaraqlar;
- Aksiya davrida yopilgan omonatlar;
- Bank xodimlari va ularning 1-toifa yaqin qarindoshlariga tegishli omonat hisobvaraqlari.

#### **V. Mukofot jamg‘armasi (fondi)**

15. Bank tomonidan aksiya natijalari bo‘yicha **2 nafar** g‘oliblarni har birini taqdirlash uchun quyidagi sovrinlar ajratiladi:

- FIFA World Cup 2026 doirasida AQShga ekonom klass aviachiptasi
- PlayStation 5
- 65” Smart TV

#### **VI. Aksiya g‘oliblarini aniqlash, sovrinlarni olish tartibi va shartlari**

16. G‘oliblar Bank mas’ul xodimlari ishtirokida 2026-yil 5-may kuni onlayn tarzda Facebook va Instagram sahifalarida tasodifiy tanlash (random.org) orqali aniqlanadi.
17. Aksiya g‘oliblariga sovrinlar aksiya natijalari aniqlangan kundan boshlab 1 oy ichida topshiriladi.
18. Agar g‘olib sovrinni olishdan voz kechsa yoki belgilangan muddatda murojaat qilmasa, u sovrinni olish huquqidan mahrum bo‘ladi.
19. Talab qilib olinmagan sovrinlar boshqa ishtirokchilarga berilmaydi va bank tasarrufiga o‘tkaziladi.
20. Bank yutuq g‘olibi Futbol bo‘yicha Jahon chempionati o‘tkazilayotgan davlatga kirish vizasini olinishida ishtirok etmaydi va viza olish uchun javobgar emas.

#### **VII. Yakunlovchi qoidalar**

21. Aksiya ishtirokchilarini xabardor qilish Bankning rasmiy sahifalari va ijtimoiy tarmoqlari orqali amalga oshiriladi.
22. Batafsil ma’lumot Bankning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.
23. Aksiya shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqi Bankda saqlanadi.
24. Aksiya bilan bog‘liq barcha nizolar muzokaralar orqali hal etiladi.
25. Sovrinlar bilan bog‘liq soliqlar Bank tomonidan qoplanadi.
26. Bank fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarini bajarish bo‘yicha javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.
27. Aksiyada ishtirok etuvchi mijozlar ushbu shart-qoidalarni qabul qilishlari lozim.